
ISTEMOLCHILAR YANGI TARMOQQA ULANMOQDA

Farg'ona shahrining «Zarbdor» mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi iste'molchilar yangi qurib yakuniga yetkazilgan tarmoqqa ulanmoqda.

Shu kunga qadar «Zarbdor» mahalla fuqarolar yig'ini hududiga 240 dan ortiq yangi temir-beton tayanchlarini o'rnatish, 2,4 km uzunlikda 0,4-6 kVli elektr uzatish tarmoqlarini yangidan qurish ishlari bajarildi.

Bundan tashqari hududdagi 35, 46 hamda 640-sonli o'ta yuklama bilan ishlab kelayotgan transformator punktlarining yukini yengillatish maqsadida 2 dona turli quvvatdagi yangi transformator punktlarini o'rnatildi. Natijada, mahalladagi 200 dan ortiq iste'molchilarni elektr ta'minoti yaxshilandi.

2023-02-02 19:42:30